

## EKOLOGIYA SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI

**Abralov Umidjon Alisher o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tizimining huquqiy asoslari tahlil etilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat boshqaruvining zamonaviy shakllari, institutsional islohotlar va vakolatli organlarning faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2025-yillarda ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari, shuningdek, hukumat qarorlari asosida ekologiya sohasida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish yo'nalishlari yoritilgan. Maqolada amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning chuqur tahlili asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Maqolada shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ekologiya, davlat boshqaruvi, ekologik xavfsizlik, normativ-huquqiy hujjatlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, institutsional islohotlar, vakolatli davlat organlari, xorijiy tajriba*

**Abstract:** *This article explores the legal foundations of the state governance system in the field of ecology. It examines modern forms of public administration, institutional reforms, and regulatory legal acts that govern the activities of authorized bodies in protecting the environment and ensuring ecological security. Special attention is given to presidential decrees and resolutions from 2017 to 2025, as well as Cabinet of Ministers decisions aimed at improving the environmental governance system. Based on a detailed analysis of current legal acts, the article offers recommendations for enhancing national environmental legislation. The article also analyzes the experience of foreign countries.*

**Key words:** *ecology, public administration, environmental security, regulatory legal acts, environmental protection, environmental policy, sustainable development, institutional reforms, authorized state bodies, international experience*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются правовые основы системы государственного управления в сфере экологии. Анализируются современные формы управления, институциональные реформы и нормативно-правовые акты, регулирующие деятельность уполномоченных органов в области охраны окружающей среды и обеспечения экологической безопасности. Особое внимание уделено указам и постановлениям Президента Республики Узбекистан 2017–2025 годов, а также решениям Кабинета Министров, направленным на совершенствование системы экологического управления. На основе анализа действующих нормативно-правовых актов в статье предлагаются*

*рекомендации по совершенствованию национального законодательства. В статье также проанализирован опыт зарубежных стран.*

**Ключевые слова:** *экология, государственное управление, экологическая безопасность, нормативно-правовые акты, охрана окружающей среды, экологическая политика, устойчивое развитие, институциональные реформы, уполномоченные государственные органы, зарубежный опыт*

## KIRISH

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi deganda, vakolatli davlat organlarining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati tushuniladi. Bunday boshqaruv faoliyati, avvalo, ijroiya hokimiyat vakillarining qonunlar va vakillik organlari qarorlarini amaliyotga tatbiq etishdagi vakolatlariga tayanadi. Shu bilan birga, ekologiya sohasidagi davlat organlarining farmoyish berish vakolati ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan majburiy ko'rsatmalar berish huquqi bilan belgilanadi. Ushbu ko'rsatmalar doimiy amal qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar shaklida bo'lishi yoki faqat muayyan holatga oid tarzda — masalan, ekologik huquqbuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan yakka tartibdagi farmoyish shaklida bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda atrof-muhitning barqarorligini ta'minlash va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash muhim davlat siyosati yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish va vakolatli organlar faoliyatining huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish zaruriyati ortib bormoqda. Mazkur maqola aynan shu masalalarni yoritishga, mavjud qonunchilik va amaliyotdagi holatlarni tahlil qilib, xalqaro tajribani o'rganish orqali milliy boshqaruv tizimini rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda iqlim o'zgarishi sohalarida keng qamrovli va samarali chora-tadbirlar qabul qilinib, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Mazkur izchil islohotlar yurtimiz ekologiyasini yaxshilash va tabiiy muhitni asrashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi turgan bo'lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi” [1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Mazkur maqola doirasida O'zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir

Prezident Farmoni va boshqa milliy normativ hujjatlar asosiy ilmiy-huquqiy manba sifatida tahlil qilindi. Milliy qonunchilik sohasidagi yuridik ilmiy tadqiqotlar, jumladan Bahronov Sh. X, Bozorov U. B, Fayziyev Sh. X, Hayitov Sh. R, Ikramov Sh.T. hamda Islomov N.M kabi O'zbekistondagi yetakchi huquqshunos olimlarning ilmiy ishlari va qarashlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

Shuningdek, ekologiya va davlat boshqaruvi sohasidagi metodologik yondashuvlarni boyitish maqsadida xorijiy davlatlar olimlari — Devid L., Emerson G, Fayol A, Ford G, Killen K, Ma Sin va Otto M. ning tadqiqotlari chuqur o'rganildi. Ularning ilmiy asarlari ekologik boshqaruvning xalqaro standartlari va jahon amaliyotini tahlil qilish imkonini berdi.

MDH mamlakatlaridan Atamanchuk G. V, Balashenko S. A, Bogolyubov S. A, Boltanova Y.S. hamda Binchuk M.M. kabi mutaxassislarning ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi va qonunchilikka oid ilmiy ishlari ham metodologik bazani mustahkamlashda asosiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Metodologiya qismi sifatida, maqolada huquqiy tahlil, solishtirma-huquqiy usul, huquqiy normalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini o'rganish, shuningdek, milliy va xalqaro qonunchilik bazalarini solishtirish yondashuvlari qo'llanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar ekologiya sohasida davlat boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishda asos bo'ldi.

### **MUHOKAMA**

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda mavjud ekologik muammolarning asosiy sababi sohada yagona va markazlashgan davlat boshqaruv organining yo'qligi hamda qonunchilikdagi noaniqlik va muvofiqliksizliklardir. Shu sababli, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini tizimli ravishda tartibga solish zarurati dolzarb masalaga aylangan. Kompleks yondashuvga asoslangan qonunchilikni yaratish va takomillashtirish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, xususan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, chollanishning kengayishi, ozon qatlaminin yemirilishi, global isish va chuchuk suv resurslarining kamayishi kabi holatlar xalqaro hamjamiyat va har bir davlat uchun katta xavfdir. Ushbu muammolarni samarali hal etish maqsadida sohani tartibga soluvchi davlat boshqaruv organlari faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli organlarning faoliyatini optimallashtirish, shuningdek davlat ekologik nazoratining ta'sirchanligini kuchaytirish masalalari chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini talab etadi. Shu bilan birga, sohada davlat boshqaruvi organlariga yuklangan vazifalar takrorlanishini bartaraf

etish, qonunchilikdagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni yo'qotish, shuningdek davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ulardan oqilona foydalanish va davlat muhofazasi ta'kidlangan. Bu normativ-huquqiy asos ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvining muhim tamoyillarini tashkil etadi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 115-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlaydi. Ushbu normalar davlat boshqaruvining tizimli va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ekologiya sohasidagi boshqaruv organlarining vazifalari va mas'uliyatlarini aniq belgilaydi [2].

Ushbu normativ hujjatlar asosida ekologik muammolarni bartaraf etish, tabiiy resurslarni saqlash va ularning oqilona foydalanilishini ta'minlash, shuningdek, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun yagona davlat siyosati va boshqaruv mexanizmi yaratilgan. Bu esa davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish va ekologiya sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi deb - vakolatli davlat organlarining tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy mug'itni muhofaza etish bo'yicha ijro etish va farmoish berish faoliyati tushuniladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

Boshqaruvning qonuniyligi — barcha boshqaruv faoliyati qonun va huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi, qonunchilik normalarining qat'iy bajarilishi ta'minlanadi.

Tarmoq va xududiy boshqaruvni muvofiqlashtirish — ekologik siyosat va tadbirlar milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda samarali hamkorlik va uyg'unlik asosida boshqariladi.

Ekologiya masalalarini hal qilishda har tomonlama yondashish — ekologik muammolarni yechishda iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy va texnologik omillarni hisobga olgan kompleks yondashuv qo'llaniladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini tashkil etishda tabiiy resurslardan foydalanish va nazorat qilishni ajratish — tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ularning himoyasi bo'yicha nazorat funksiyalari aniq ajratilgan holda tashkil etiladi [3].

Ushbu tamoyillar ekologiya sohasida samarali davlat boshqaruvining poydevorini tashkil etib, tabiiy muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Vazirlar Mahkamasi ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi asosiy vakolatli organlardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi deganda vakolatli davlat organlarining atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyati tushuniladi.

Mazkur boshqaruv faoliyati orqali davlat o'zining ekologik siyosatini ro'yobga chiqaradi va ekologik sohadagi konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshiradi. Davlat ekologiya sohasidagi boshqaruv vositasida tabiiy resurslarning egasi sifatida ulardan foydalanishni tashkil etadi, shu jumladan ularni boshqarish, taqsimlash va himoya qilish bilan bog'liq funksiyalarni bajaradi.

Davlat boshqaruv organlarining ekologik sohadagi ijro etish va farmoyish berish faoliyati, eng avvalo, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik qonunchilik talablari ijrosini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda qonuniylik, samaradorlik va barqarorlik tamoyillari asosiy mezon sifatida belgilanadi [4].

Ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlari o'z faoliyatini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar hamda ushbu sohada muhim vakolatlarni bajaradilar. Jumladan, ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish;

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishni ta'minlovchi me'yoriy talab va ko'rsatkichlarni ishlab chiqish;

Ekologik standartlash faoliyatini yuritish;

Ekologik sertifikatlash jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish;

Tabiiy resurslarning davlat hisobini yuritish hamda ularning davlat kadastrini shakllantirish;

Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha kompleks rejalarni ishlab chiqish;

Tabiiy resurslarni adolatli taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

Tabiiy resurslarning hududiy joylashuvini tartibga solish;

Ekologik nazorat tizimini tashkil etish va doimiy monitoringni amalga oshirish;

Ekologik sohadagi nizolarni qonunchilik asosida hal etish.

Mazkur vakolatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlashda, atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda muhim o'rin tutadi. Shu orqali davlat ekologik barqarorlik va yashash muhitining sifatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu borada nafaqat markaziy davlat organlari, balki joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ham ekologik xavfsizlikni ta'minlashda bevosita ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga bir qator muhim vakolatlar yuklatilgan. Ushbu vakolatlar joylarda ekologik siyosatning izchil amalga oshirilishi, aholining ekologik huquqlarini ta'minlash hamda atrof-muhit holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Birinchidan, mahalliy organlar o'z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, mintaqaning ekologik dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Ushbu dasturlar mahalliy ekologik muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish va ekologik xavfsizlikni oshirish choralarini belgilab beradi.

Ikkinchidan, tabiiy resurslarni hisobga olish, ularning holatini baholash, shuningdek, ekologik jihatdan xavfli obyektlarni ro'yxatga olish ishlari amalga oshiriladi. Bu orqali mahalliy darajadagi ekologik monitoringni tashkil etish va atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Uchinchidan, tabiatni muhofaza qilishga oid tadbirlarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, resurslarni boshqarishda samarali mexanizmlarni joriy etish mahalliy boshqaruvning asosiy vazifalaridandir. Ayniqsa, mahalliy byudjetdan ekologik tadbirlar uchun mablag' ajratilishi hamda loyihalarning texnik qo'llab-quvvatlanishi katta ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalarni berish, ulardan foydalanilganlik uchun to'lovlarni undirish, iqtisodiy mexanizmlar orqali nazorat qilish kabi funksiyalar ham mahalliy boshqaruv organlari zimmasiga yuklatilgan.

Beshinchidan, mahalliy darajada ekologik nazoratni amalga oshirish, atrof-muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik obyektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish, zarur hollarda ularni qayta ixtisoslashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolati mavjud. Bunday choralar, albatta, qonuniy asosda va zaruratga qarab amalga oshiriladi. Misol uchun, favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar yoki ekologik ifloslanishning xavfli darajasi aniqlanganda faoliyatni o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatish mahalliy organlar tomonidan hal etilishi mumkin. Aks holda, bunday masalalar sud tartibida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa masalalarni tartibga solish vakolati ham mahalliy davlat organlariga tegishlidir. Bu esa ularning ekologik boshqaruv tizimidagi rolini yanada kuchaytiradi [5].

Xulosa qilib aytganda, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ekologik siyosatning amalga oshirilishida muhim bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Ularning

vakolatlari orqali joylardagi ekologik muammolar o'z vaqtida aniqlanadi, hal etiladi va aholining sog'lom ekologik muhitda yashash huquqi ta'minlanadi. Shu bilan birga, davlatning ekologik strategiyasi mahalliy sharoitda real natijalar bilan ta'minlanadi.

### **NATIJALAR**

Davlat boshqaruvi tizimining ekologiya sohasida huquqiy asoslari muhim rol o'ynaydi. O'rtacha natijalar asosida, ekologik siyosatni amalga oshirishda davlatning huquqiy me'yorlari, boshqaruv organlarining qonuniyligi, va fuqaro jamiyatining faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir davlatda ekologik huquqni nazorat qilish uchun yaratilgan institutlar va mexanizmlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, umumiy jihatlar ham mavjud. Huquqiy asoslar, ayniqsa, ekologik monitoring va tahlil tizimining shakllanishi va samarali ishlashi uchun muhim bo'lib, ularning amalga oshirilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'ladi.

Shu bilan birga, ekologik qonunchilikning samaradorligi, uning ijrosi va normativ huquqiy hujjatlar tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan say-harakatlar, davlat boshqaruvi tizimining ekologik barqarorlikka erishishdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

So'nggi yillarda respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning inson salomatligiga salbiy ta'sirini oldini olish va umuman hayot sifatini oshirish maqsadida atrof-muhitni himoya qilish sohasida yangi yondashuvlar va texnologik jarayonlar joriy etilmoqda. Shahar va tumanlardagi sanitariya tozalash tizimi yangi tuzilma asosida tashkil etildi. Bu tizimda chiqindilarni to'plash, tashish va qayta ishlashni zamonaviy texnologiyalar bilan amalga oshiruvchi klasterlar davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilmoqda.

Biroq, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishiga bir qator muammolar to'sqinlik qilmoqda. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining funksiyalari va vakolatlari haddan tashqari markazlashgan;

Ekologiya qo'mitasining inspeksiyaviy faoliyati birlashmagan bo'lib, bu hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni samarali amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda;

Sanitariya tozalash sohasidagi subyektlar o'rtasida tashkiliy, texnik, iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyatlari yetarlicha muvofiqlashtirilmagan;

Ekologik targ'ibot va axborot-tushuntirish ishlari uchun samarali mexanizmlar yo'qligi ijtimoiy reklama va axborot ishlari samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

Atrof-muhitni muhofaza qilish tizimida, xususan, atrof-muhit holatini modellashtirish va prognozlashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yetarli darajada joriy etilmasligi muammo yaratmoqda [6].

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni himoya qilish sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun kompleks va tizimli yondashuvlar zarur.

O'zbekistonning ekologik vaziyatini yaxshilash uchun davlat organlari, xususiy sektor va aholi o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish, ekologik targ'ibotni kuchaytirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish lozim. Shuningdek, ekologik islohotlar va chiqindilarni boshqarish tizimini muvofiqlashtirish, markazlashtirilgan boshqaruvni optimallashtirish hamda ekologik monitoringni yanada samarali qilish ekologiya sohasida erishilayotgan natijalarni yaxshilashga yordam beradi. Bu chora-tadbirlar orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni himoya qilish borasida jiddiy qadamlar qo'yish mumkin.

Mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va ekologik xavfsizlikni kuchaytirish bugungi kunda nafaqat ichki, balki global miqyosda ham muhim masalalardan biridir. Ekologik vaziyatning yaxshilanishi, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirish, jamiyatning sog'lig'ini saqlash va kelajak avlodlar uchun xavfsiz va qulay yashash sharoitlarini yaratish maqsadida davlat tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, ekologik islohotlarni tizimli ravishda joriy etish, hamda ekologik huquqbuzarliklarni oldini olish uchun yangi tashkiliy o'zgarishlar, huquqiy mexanizmlar va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ushbu maqolada, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi va uning yangi tashkiliy tuzilmalari orqali amalga oshirilayotgan islohotlarning yuridik jihatlari, ularning samaradorligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil etiladi.

Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash va barqaror ekologik holatni saqlash, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni jadallashtirish maqsadida quyidagi muhim tashkiliy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda:

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi a'zosi sifatida belgilangan, bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlashda integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlashga yordam beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan kelishilgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi. Bu, hududiy ekologik siyosatni yaxshilash uchun zarur tashkiliy struktura yaratishga xizmat qiladi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlarini vazir tomonidan bevosita tayinlash va lavozimdan ozod qilish huquqiga ega. Bu esa boshqaruv tizimining markazlashganligini ta'minlab, ekologik sohadagi qarorlar tez va samarali amalga oshirilishini ko'zda tutadi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi, Xalqaro Tabiatni Muhofaza Qilish Ittifoqi, Global Ekologik Jamg'arma, Moslashish Jamg'armasi va Yashil Iqlim Jamg'armasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va muvofiqlashtirishda vakolatli organ sifatida faoliyat yuritadi. Bu ekologik masalalarda global hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining qabul qilgan qarorlari, taqdimnomalari va ko'rsatmalari davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Bu, ekologik qonunchilik va me'yoriy hujjatlarning amal qilinishini ta'minlashda ahamiyatlidir.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan tashkiliy o'zgarishlar natijasida, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'rmon xo'jaligi agentligi va Gidrometeorologiya xizmati agentligi kabi muassasalar vazirlikka integratsiya qilinib, uning huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirishda davom etadi. Shuningdek, ekologik sohadagi faoliyatni samarali boshqarish uchun bu tashkilotlarning o'zaro integratsiyasi ta'minlanadi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan qayta tashkil etilayotgan, tugatilayotgan yoki o'zgartirilayotgan tashkilotlarga tegishli ko'chmas mulk va mol-mulkka bo'lgan huquqlar, belgilangan yig'imlar va to'lovlarsiz qayta rasmiylashtiriladi. Bu, ekologik tizimdagi tashkilotlar o'rtasida to'liq huquqiy barqarorlikni yaratishga qaratilgan muhim qadamlardan biridir [7].

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar mamlakatdagi ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va atrof-muhitni himoya qilish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, bu esa ekologik huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim omil bo'ladi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi masalalarida barcha darajadagi boshqaruv organlari o'rtasidagi samarali hamkorlik va yaxshilangan tizimli boshqaruvning joriy etilishi ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish hamda vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" [8] farmoni hamda "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" [9] qaroriga o'zgartirishlar kiritilmoqda. Mazkur o'zgartirishlar ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ular ekologik boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, qonuniyligini mustahkamlash

va boshqaruv organlarining vakolatlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu hujjatlar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi tizimining huquqiy negizini tashkil etib, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda iqlim o'zgarishiga qarshi samarali kurash olib borish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilaydi. Shu bois, ushbu hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartirishlar ekologik qonunchilikning rivojlanishi, davlat boshqaruvining markazlashtirilishi va kompleks tizim asosida tashkil etilishi jarayonlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Natijada, ekologik boshqaruv tizimining huquqiy asoslari mustahkamlanib, davlat organlarining faoliyat samaradorligi oshiriladi hamda ekologik qonunbuzarliklarning oldini olish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida davlat siyosatining konseptual asoslari yanada mustahkamlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev mustaqilikning o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan <https://kun.uz/news/2023/08/31/prezident-ekologik-muammolar-va-suv-tanqisligi-haqida-gapirdi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F08%2F31%2Fprezident-ekologik-muammolar-va-suv-tanqisligi-haqida-gapirdi>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023 yildagi -son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
3. B. Talapov Ekologiya huquqi O'quv qo'llanma.
4. H.I.To'xtashev Ekologiya huquqi. O'quv qo'llanma. H.I.To'xtashev. — T.: TDYU nashriyoti. "Lesson Press" nashriyoti, 2022-y. — 372 b.
5. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son; 07.02.2024-y., 03/24/904/0102-son; 30.08.2024-y., 03/24/951/0673-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 03.10.2018 yildagi PQ-3956-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2018-y., 07/18/3956/1994-son; 21.03.2019-y.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 30.12.2021 yildagi PQ-76-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 07/21/76/1231-son; 11.08.2022-y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi

faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 31.05.2023 yildagi PF-81-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.06.2023-y., 06/23/81/0320-son; 11.11.2023-y.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 31.05.2023 yildagi PQ-171-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.06.2023-y., 07/23/171/0318-son; 27.07.2023-y., 06/23/114/0527-son; 24.11.2023-y., 06/23/199/0882-son; 29.12.2023-y., 07/23/422/0994-son; 06.01.2024-y.